

**“OQ KIYIMLILAR” QO’ZG’OLONI VA UNING TARIXIY
AHAMIYATI
(NAXSHAB VA KESH MISOLIDA).**

QABULOV SHAXZOD ZIYADULLA O'G'LI

Shahrisabz pedagogika instituti Tarix kafedrası

Ijtimoiy – gumanitar fanlarni o’qitish metodikasi (Tarix) yo’nalishi

I kurs magistranti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Movarounnahr va Xurosonda arablar bosqiniga qarshi ko’tarilgan yirik qo’zg’olonlardan biri “Oq kiyimlilar” qo’zg’oloni hamda uning Naxshab va Kesh vohalaridagi kurashning tarixiy ahamiyati haqida so’z borgan. Shuningdek Muqanna boshchiligidagi qo’zg’olonning borishi, o’z davrining eng qudratli davlati bo’lgan xalifalikni larzaga solishi, boshqa o’lkalarda ham ozodlik harakatlarining boshlanishi haqida ba’zi mulohazalar keltirilgan.

Kalit so’zlar: Muqanna, Som qal’asi, Buxoro, Kesh, Narshaxiy, Abu Ja’far, Beruniy, Chag’oniyon va Naxshab.

Vatanimiz xalqlarining arablar asoratiga qarshi olib borgan kurashi tarixda alohida o’rin tutadi. Arab xalifaligining O’rta Osiyoni bosib olishi asta-sekin, bosqichma-bosqich bo’lib o’tgan. Naxshab va Kesh kabi shaharlar zabt etilishi bu jarayonning muhim qismi bo’lib, bu hududlar Xurosonning asosiy qismi sifatida xalifalik nazoratiga o’tdi. Arab xalifaligining O’rta Osiyoni bosib olish jarayoni VII asr o’rtalaridan boshlanib, dastlab Marvning egallanishi bilan boshlandi. Qutayba ibn Muslim boshchiligidagi yurishlar (705-711 yillar) davrida Naxshab (Nasaf/Qarshi) va Kesh (Shahrisabz) kabi shaharlar xalifalik tarkibiga kirdi. Bu bosib olish jarayoni mahalliy hukmdorlar bilan tuzilgan bitimlar va harbiy harakatlar natijasida sodir bo’lgan.

Arablarning O’rta Osiyoga kirib kelishini 2 bosqichga bo’lish mumkin.

1. Arablar faqat talonchilik va o'lja, raqiblarning kuch qudratini aniqlash maqsadida yurishlar qilganlar (Ubaydulla ibn Ziyod, Sayid ibn Usmon).

2. Istilochilik xarakteri ustunlik qiladi. 706 yili Poykent ishg'ol etiladi. 709 yil Buxoro 711 yil Xorazm, 713 yil Ustrishona orqali Xo'jand va Farg'ona, 715 yilda Qoshg'argacha kirib boriladi[1].

Arab zulmiga qarshi 720 yilda G'urak va Divashtich qo'zg'oloni, 725 yilda Hutalong, 728 yilda Sug'diyonada 736 – 737 yillarda Toxariston va Sug'dda qo'zg'olonlar ko'tariladi. Qo'zg'olonlar orasida eng kuchlisi 776 yilda boshlangan Muqanna qo'zg'oloni edi.

Qo'zg'olon 776 yili boshlanadi. Muqanna o'zining 36 ta muridi bilan Amudaryodan o'tib, Kesh viloyatiga yo'l oladi. Buxorxudot Tug'shoda uni qo'llab-quvvatlay boshlaydi. Muqanna Kesh yaqinidagi Som qal'asini o'ziga qarorgoh qilib oladi. Butun Qashqadaryo vohasi qo'zg'olonchilar qo'liga o'tadi. Muqanna ta'limoti umumiy mulkiy tenglik va arablarni O'rta Osiyodan haydab chiqarish g'oyalarini targ'ib etar edi. Muqanna ta'limoti Sug'd, Iloq (Ohangaron), Shoshda ham yoyila boshladi. Qo'zg'olonda turli ijtimoiy guruhlar vakillari qatnashib, ularni bir fikr istilochilarni mamlakatdan haydab chiqarish, mustaqil davlat barpo qilish g'oyasi billashtirib turar edi. Qo'zg'olonga zarba berish uchun xalifa Abu Ja'far 776 yilda Jabroil ibn Yahyo boshliq katta harbiy kuchni Movarounnahrqa yuboradi. Biroq Jabroil qo'zg'olonchilardan yengiladi. U katta talofatlar berib, bazo'r Samarqandga yetib keladi. 10000 askar bilan Jabroilga yordamga yuborilgan Uqba ibn Salim Kesh va Samarqand oralig'i, 14000 kishilik qo'shin Termiz yaqinida qo'zg'olonchilar tomonidan tor-mor keltiriladi. Natijada Chag'oniyon va Naxshab vodiylari qo'zg'olonchilari qo'liga o'tadi. Qo'zg'olon 776-yilda Buxoro vodiysida kuchayib ketadi. Bu Buxoro uchun katta xavf ekanligini yaxshi bilgan arablar 776-yil aprelida Samarqand noibi arab qo'mondoni Jabroil ibn Yaxyo va Buxoro amiri Xusayn ibn Maozning birlashgan kuchlari oq kiyimlilar qo'rg'oni Narshaxni egallaydilar. Qo'zg'olonchilardan 7000 kishi o'ldiriladi. Qo'zg'olon yo'l boshchilaridan Hakim ibn

Ahmad va Hishriylar qatl etiladi. Natijada Kesh va Samarqand qo'zg'olonning asosiy markazlariga aylanadi[2]. 777-yilda Oq kiyimlilarga zarba berish uchun xalifa Mahaiy Nishopurga keladi va Xuroson noibi Maoz ibn Muslim va Hirot amiri Said Xoroshiy qo'mondonligida katta qo'shin to'planib, Samarqandga yuboriladi. 777-778-yillar mobaynidagi og'ir janglardan keyingina Samarqand arablar tomonidan ishg'ol etiladi. Oq kiyimlilar Narshax va Samarqandda mag'lubiyatga uchragach, sotqinlik yo'liga o'tib, arablarga yordam beradilar. 780-783— yillarda qo'zg'olon harakatlari so'nggi hal qiluvchi pallaga kiradi[4]. Bu davrda Muqannaning asosiy kuchlari Qashqadaryoning Kesh vohasida to'plangan edi. Qo'zg'olonning bosh tayanch nuqtasi Som qal'asi ham shu joyda bo'lgan. Albatta, bu vaqtga kelib xalifalik qo'shinlari katta ustunlikka ega bo'lib, ular mahalliy aholining yuqori tabaqalarini o'z tomoniga jalb etib, qo'zg'olonchilarni tobora siqib borayotgan edi. Muqanna Somda mustahkamlanib, o'z tarafdorlari bilan so'nggi nafasigacha kurashdi. Ammo bu kurashda Muqanna mag'lubiyatga uchraydi va o'zini yonib turgan olovga tashlab halok bo'ladi. Bu voqea Beruniy ma'lumotiga ko'ra 783 yilda yuz beradi. Tarixchi Tabariyning ma'lumotlariga ko'ra, Muqanna o'z halokatining muqarrarligiga ko'zi yetgach, zahar ichgan. Shunday qilib, Movarounnahrda 14 yil davom etgan va Arab xalifaligini larzaga keltirgan Muqanna boshchiligidagi qo'zg'olon shu tariqa yakunlandi[5].

Oq kiyimlilar qo'zg'oloni yengilishining bir qancha sabablari bor edi. Avvalo, qo'g'olonchilar uyushqoqlik bilan xarakat qila olmadilar. Mahalliy zodagonlar alohida guruhni tashkil etib, keyinchalik umumiy xiyonat yo'liga kirib arablar tomoniga o'tib ketishadi. Muqannaning o'zi Som (yoki Sanam) qal'asida bo'lib bevosita qo'g'olonga rahbarlik qila olmadi. Uning o'zi umumiy tenglik g'oyasini ko'tarib chiqib, o'zi kichik davlat boshlig'iga aylana boradi. Bundan tashqari, o'zaro urushlar natijasida aholi juda charchadi, ekinzorlar payxon qilindi, iqtisodiy tanazzul boshlana bordi. Muqqannadan so'ng ham uning safdoshlari harakati ham bo'lib turadi[6].

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, arablar Movarounnahr va Xuroson hududlarini bosib olgan davrlardan boshlab ularga qarshi xalq harakatlar doimiy ko'tarilib turgan, bunday qo'zg'olonlarning sodir bo'lishiga asosiy sabablar yetarli edi.

Birinchi navbatda mahalliy aholining o'z erkinligi qo'lga kiritish bo'lsa, ikkinchi navbatda arablarning o'lkada olib borgan siyosatiga qarshi norozilikning kuchayishi asosiy sabab bo'lgan. Ya'ni arablarning mahalliy aholiga bo'lgan zulmining oshib borishi, musulmon bo'lmagan odamlarga nisbatan shavqatsiz munosabatda bo'lishi, soliqlarni o'z vaqtida to'lamagan dehqon va hunarmandlarning badaniga tamg'a bosilishgacha borishi kabi sabablarni keltirishimiz mumkin.

Xususan, Muqanna qo'zg'olona xalifalik kuchini zaiflashtirdi va boshqa o'lkalarda ham ozodlik harakatlarining chiqishiga sabab bo'ladi. Qo'zg'olon ayni chog'da xalifalikning Movarounnahrdagi mustamlakachilik va bosqinchilik ildizlarini ham qaqshatdi. Uning hukmronligining davom etishini shubha ostiga solib qo'ydi. Eng muhimi, u erk va ozodlik uchun talpinayotgan yurtimiz kishilarida vatanparvarlik tuygusini jo'sh urdirdi, ulami ajnabiy zolimlarga qarshi yanada shiddat bilan kurash olib borishga da'vat etdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sagdullayev A.S. Gau Sug'd – Nautaka-Kesh // San'at. – Toshkent, 2001. – №1. – B. 7.
2. Kamaliddinov Sh.S. «Kitab al-ansab» Abu Sa'da Abulkarima ibn Muhammada as-Sa'mani kak istoricheskiy istochnik po istorii kulturi Sredney Azii. – Tashkent: Fan, 1993. – S. 108.
3. Masson M.YE., Pugachenkova G. A. Shaxrisabz pri Temure i Ulugbeke // Trudi SAGU. Novaya seriya. Gumanitarniye nauki. Arxeologiya Sredney Azii. – Tashkent, 1953. Vip. 49. – S. 22.
4. Lunin B.S i dr. Shaxrisabz 1968 g, – №8. – S. 22.
5. Q.Usmonov, M.Sodiqov, S.Burxonova – O'zbekiston tarixi T:Toshkent 2006
6. R.Xoliqov, K.G'aniyev, M.Nasrullayev – O'zbekiston tarixi T:Samarqand 2019 7. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil